

**BADIIY MATNDA UYUSHIQ BO'LAKLARNING QO'LLANISHI.
(ODIL YOQUBOVNING "MUQADDAS" QISSASIDA UYUSHIQ
BO'LAKLARNING ISHTIROKI.)**

Saitova Nilufar Djumaydillayevna
DTPI, Filologiya va tillarni o'qitish
o'zbek tili kafedrasida katta o'qituvchisi
Shoniyeva Jasmina
Bozorova Vazira
DTPI, Filologiya va
tillarni o'qitish: o'zbek tili

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy matnni sintaktik tahlil qilish tamoyillari va asarda qo'llangan so'zlarning sintaktik bog'lanishi va uyushiq bo'laklar atroflicha o'rganilgan. Sintaktik tahlil tamoyillariga alohida to'xtalib o'tilib, har biriga asar ichidan bir nechta namunalar keltirildi.

Kalit so'zlar: badiiy matnni sintaktik tahlil qilish tamoyillari, uyushiq bo'laklar.

Annotation: This article examines in detail the principles of syntactic analysis of a fiction text and the syntactic connection of words used in the work and conjunctions. The principles of syntactic analysis are discussed separately, and several examples from the work are given for each.

Key words: principles of syntactic analysis of a fiction text, conjunctions, equation.

KIRISH

Asosiy bo'lim maqolaning ahamiyat jihatidan ham, hajm jihatidan ham eng salmoqli qismi bo'lgani uchun bir necha mayda qismlarga bo'linadi.

Maqolaning maqsadi Uyushiq bo'lak haqida umumiy ma'lumotlarni to'plash shuningdek, olimlarning uyushiq bo'lak haqidagi fikr-mulohazalarini ko'rib chiqish orqali mavzunu to'liq o'rganish.

Uyushiq bo'lak mavzu bo'yicha shu kungacha ma'lum ilmiy nazariy fikrlardan tashqari biror yangi gap aytish talab qilinmaydi. Maqola oldiga:

- 1) mavjud fikrlarni atroflicha o'rganib, ularni talqin qila olish;
- 2) berilgan manbalardan tahlil uchun mavzuga doir misollarni izlab topish;
- 3) ularni mavzuni yoritish maqsadida to'g'ri tahlil qilishi;
- 4) o'z kuzatishlarini mantiqan izchillikda ravon bayon etishi;
- 5) tegishli xulosalar chiqarish kabi talablar qo'yilgan.

O'zbek tilida matn tahlili fonetik, leksik, morfologik va sintaktik usullarda tahlil qilinadi. Quyida biz siz bilan shular orasidan badiiy matnni sintaktik tahlil qilish tamoyillarini Odil Yoqubovning „Muhabbat“ nomli qissasi orqali ko'rib chiqamiz.

TADQIQOT MATERIALLARI VA ADABIYOTLAR

Ushbu maqolani yozishda Sayfullayeva R, Ne'matov H kabi bir qator olimlarning asaridan yaqindan foydalanildi. Ularning asarlari maqola mavzusi ochib berishga turtki bo'ldi, desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Uyushiq bo'laklar – gapda bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifani bajarib, teng bog'lovchilar yoki sanash ohangi bilan bog'lanadigan bo'laklar. Bunday bo'laklar gapda birdan ortiq holda qator kelishi mumkin va bu gaplar uyushiq bo'lakli gaplar hisoblanadi. Masalan, Tobora ko'tarilayotgan quyosh o'rik, yong'oq, shaftoli, olma va giloslarning shoxlariga o'zining ertalabki yog'dusini sepmoqda. Bu gapda o'rik, yong'oq, shaftoli, olma va gilos so'zlari uyushib kelgan. Ular bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifani bajarmoqda. Ular o'zaro sanash ohangi va teng bog'lovchi yordamida birikkan. Gapning barcha bo'laklari uyusha oladi: uyushiq egalar, uyushiq kesimlar, uyushiq aniqllovchilar, uyushiq to'ldiruvchilar, uyushiq hollar. Uyushiq bo'laklar qismlari, odatda, bir xil grammatik shaklda bo'ladi. Gapning bo'laklari yakka-yakka holda yoki o'ziga bog'liq so'zlar bilan kengaygan holda uyushib kelishi mumkin: Abdulla Qahhorning ijodiy tajribasi kitobxonlar uchun ham, adabiyotshunoslar uchun ham, yosh yozuvchilar uchun ham bebaho bir manbadir (P. Qodirov). Kesim uyushib kelganda uni shakllantiruvchi vositalar (zamon, shaxs, son, mayl, tasdiq-inkor shakllari, bog'lama va ko'makchi fe'llar) oxirgi bo'lakka qo'shiladi: Mavzuni yaxshi tushunish uchun, avvalo, darsni diqqat bilan tinglash, berilgan topshiriqlarni bajarish, muntazam takrorlash kerak; Men uzoq yillardan buyon shu shaharda yashab, o'qib, ishlab kelyapman. Agar ushbu vositalar har bir kesimga qo'shilsa, bunday gap uyushiq kesimli sodda gap emas, qo'shma gap hisoblanadi: Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi.

Men kirganda derazalari hovliga qaragan uzun, yarim qorong'i auditoriya qiz-yigitlarga liq to'lgan edi.

Bu gapda uzun va yarim qorong'i so'zlari sifatlovchi aniqllovchi uyushiq bo'lakka misol bo'la oladi.

Qop-qora, yaltiroq sochlarini silliq qilib tarab olgan o'rta bo'yli, yoshgina domla qo'lidagi bo'r bilan doskani taq-taq urib, uni tushunish mushkul bo'lgan murakkab formulalarga to'ldirmoqda edi.

Bu gapda qop-qora va yaltiroq va o'rta bo'yli, yoshgina so'zlari sifatlovchi aniqllovchi uyushiq bo'lakka misol bo'la oladi.

Auditoriya dim, issiq va allaqanday yoqimsiz ter hidiga to'la edi.

Bu gapda dim, issiq va allaqanday yoqimsiz so'zlari sifatlovchi aniqllovchi uyushiq bo'lakka misol bo'la oladi.

Atrofimdagi qiz-yigitlarning qisilgan ko'zlaridan ular ham domlaning leksiyasiga zor bo'lganlaridan emas, balki imtihon oldidan ko'ngillarini tinchitish uchungina kelib o'tirganlarini payqadim.

Bu gapda atrofimdagi qiz-yigitlarning qisilgan ko'zlaridanva domlaning leksiyasiga so'zlari qaratqich aniqllovchi uyushiq bo'lakka misol bo'la oladi.

Derazadan keng, chorburchak hovlining faqat bir cheti, fontani bor katta sement hovuz bilan uning atrofidagi gulzor va uch-to'rt tup kekxa sada ko'rinardi.

Bu gapda keng va chorburchak so'zlari sifatlovchi aniqllovchi uyushiq bo'lakka misol bo'la oladi.

U kechikib kelganimni domla ko'rib ranjimasin deb qo'rqayotgan bo'lsa kerak, katta-katta qora ko'zlarini domladan uzmasdan, qaddini sal bukib turar, o'zi ham shoshib, yugurib kelgan bo'lsa kerak, ikki o'rim mayin, qo'ng'ir sochlarining uchlari yechilib, ko'ylagining etagini butun qoplab olgandi.

Bu gapda o'n ikki o'rim mayin va qo'ng'ir so'zlari sifatlovchi aniqllovchi uyushiq bo'lakka misol bo'la oladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, uyushiq bo'lak tilshunosligimizda Eng muhim mavzulardan biri hisobladadi uyushiq bo'lak tilshunoslikda sistaksis bo'limiga kiradi. Qo'shma gaplar ham muhim mavzulardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ne'matov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. – T., 1999.
2. Nurmonov A., Mahmudov N. v.b. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi – T., 1992.
3. Qurbonova M. Hozirgi zamon o'zbek tili (sodda gap sintaksisi uchun materiallar). – T., 2002.
4. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. – T., 1987.